O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ABDURAXMONOVA NILUFAR ZAYNOBIDDIN QIZI

O‘ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSINING KOMPYUTER MODELLARI

10.00.11 –Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2021

UO‘K: 811.512.133-115

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавнение автореферата докторской (DSc) диссертация

Contents of abstract of doctoral (DSc) dissertation

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ABDURAXMONOVA NILUFAR ZAYNOBIDDIN QIZI

O‘ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSINING KOMPYUTER MODELLARI

10.00.11 –Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2021

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.DSc/Fil1174 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.uztafi@academy.uz) va «Ziyonet» (www.ziyonet.uz) Axborot ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Dadaboyev Hamidulla Aripovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Muhamedova Saodat Xudayberdiyevna** filologiya fanlari doktori, professor
	Urinbayeva Dilbar Bazarovna filologiya fanlari doktori, dotsent
	Nazirova Elmira Shodmanovna texnika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli ilmiy kengashi huzuridagi bir martalik Ilmiy kengashida 2021-yil «24» 12 soat 11 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel.: (871) 233-71-44; faks: (871) 233-71-44; e-mail:uztafi@academy.uz.).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (52 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 262-74-58

Dissertatsiya avtoreferati 2021- yil «13» 12 da tarqatildi.
(2021-yil «5» 13 12 dagi raqamli reyestr bayonnomasi).

N.M.Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

G'.M.Ismoilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
f.f.n., katta ilmiy xodim

D. S. Xudoyberganova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, f.f.d., prof.

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliy tilshunosligida korpusshunoslik, korpus texnologiyasi va korpus lingvistikasi muammolarini o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmida rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi. XX asrda dastlabki ingliz tili korpusining paydo bo‘lishi boshqa dunyo tillarida ham katta hajmdagi elektron korpuslarning yaratilishida muhim rol o‘ynadi. Endilikda tabiiy tilning lisoniy modellari va nutqiy imkoniyatlarini kompyuter tiliga o‘tkazish, til bilan bog‘liq masalalarni axborot texnologiyalari hamda metodlari yordamida tabiiy tilni o‘rganishda korpus obyekt vazifasini bajarmoqda. Tabiiy tillarning rivojlanish barqarorligi, ularning milliy sofligini saqlab qolishga qaratilayotgan bir davrda tillarning elektron korpuslarini yanada takomillashtirish va yangi texnologiyalarni yaratish axborot asrining dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyo kompyuter lingvistikasi integrallashgan soha sifatida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda qator usullar va metodlar orqali til muammolarini hal qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Kompyuter texnologiyalarining til rivojiga va aksincha, til texnologiyasining kompyuter texnologiyalariga ijobiy ta’siri orqali qator ilmiy yutuqlarga erishildi. Jahonda kompyuter lingvistikasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi[1]. Buning natijasida fanning mashina tarjimasi, korpus lingvistikasi, kompyuter leksikografiyasi, tahrirlovchi dastur, nutqiy sintezator, lingvostatistik tahlil qiluvchi dastur, matnlarni referatlash va tasniflash kabi qator yo‘nalishlari vujudga keldi.

Bugungi kunda o‘zbek kompyuter lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), mashinali ta’lim (machine learning), ma’lumot qidiruvi (Data Mining) kabi yangi sohalar kesimida rivojlanmoqda hamda ushbu sohalarda erishilayotgan ilmiy-amaliy natijalar bir-birini to‘ldirib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyallashuvini ta’minlashda qator ustuvor vazifalar ko‘rsatib o‘tildi[2]. O‘zbek tilining mavqeini mustahkamlash va uni til siyosati darajasida nufuzini oshirishda tilning raqamli resursini yaratishga doir qator dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini

[1] Jurafskiy D., Martin J. An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition. 2007. – P. 12-13; Karin A., Beng A. Advances corpus-based contrastive linguistics. USA: John Benjamins, 2013 – P. 25-54; Koehn P., Och F.J., Marcu D. Statistical phrase based translation // Human Language Technologies and the Annual Meeting of the North American Chapter of the Association of Computational Linguistics (HLT/NAACL). Proceedings of the Joint Conference 2003; Mitkov R. The Oxford handbook of Computational linguistics. Oxford university press, 2003; Kurdi M.Z. Natural Language Processing and Computational Linguistics: Speech, Morphology and Syntax. – Great Britain: Wiley-ISTE, 2016. – 300 p.; Чардин И.С. Лингвистические корпусы с разметкой на основе грамматики зависимостей и их применение при автоматическом синтактическом анализе: Автореф.дисс. …д-ра филол. наук. – Москва, 2004. – 24 с.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6084-son farmoni // https://lex.uz/docs/5058351.

tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-sonli, 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2013-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida”gi PQ-1989-sonli, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda yuqorida belgilangan tilni rivojlantirishga doir ustuvor vazifalarni muayyan darajada hal qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[3].

Jahon kompyuter va korpus tilshunosligida korpus texnologiyasi, korpusshunoslik, korpus lingvistikasi va korpusga asoslangan yondashuv kabi yo‘nalishlarga doir izlanishlarda quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: zamonaviy ingliz tili, qadimgi ingliz tili, zamonaviy xorijiy tillar, kam sonli tillar, xavf ostida qolgan tillarni korpus yordamida o‘rganish va NLP va korpus metodlari ishlab chiqilgan, korpusning konkordans, tokenayzer, stemmizator, lemmatizator yaratilgan (Lankaster universiteti, Buyuk Britaniya); korpusga asoslangan diskurs tahlilga doir tadqiqotlar bajarilgan (Birmingem universiteti, Buyuk Britaniya); korpus menejerlari interfeyslari joriy etilgan (Vaseda universiteti,Yaponiya[4], Iova universiteti, AQSH); sintaktik annotatsiyalangan korpus (Penn Treebank) interfeysining formal-funksional modellari yaratilgan (Pensilvaniya universiteti, AQSH); dastlabki annotatsiyalangan Braun korpusining dastlabki varianti ishlab chiqilgan (Braun universiteti, AQSH); morfologik annotatsiyalangan korpus va morfoanalizator masalalariga doir nazariy va amaliy izlanishlar olib borilgan (Leypsig universiteti, Germaniya; Kolumbiya universiteti, AQSH; Abu Dabi Nyu York universiteti, Birlashgan Arab Amirligi); semantik lug‘at asosida morfologik omonimiyadan xoli korpus tahlillari olib borilgan, (Sankt-Peterburg universiteti, Rossiya); tobelanish nazariyasiga asoslangan grammatika va avtomatik usullar yordamida sintaktik razmetkalangan lingvistik korpus platformalari yaratilgan (Rossiya fanlar akademiyasi Axborotlarni uzatish Instituti qoshidagi Kompyuter

[3] Dissertatsiyasiga mavzusiga aloqador xorijiy tadqiqotlar sharhi http://ucrel.lancs.ac.uk/, google.scholar.com; https://www.researchgate.net, https://www.aclweb.org/anthology/L16-1207.pdf, http://qazcorpus.kz/indexen/, http://www.openslr.org/resources.php, http://ddi.itu.edu.tr/en/toolsandresources

[4] Laurens Antoni tomonidan korpus menedjerlari, jumladan AntConc, ParaConc, SegmentAnt kabilar yaratilgan.

lingvistikasi laboratoriyasi); sintaktik analizator yaratishning algoritmik tavsifi ishlab chiqilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya); ta'limiy va lingvistik annotasiyalangan korpus tamoyillari va mezonlari o'rganilgan (Kaliforniya univeristeti, Kembrij universiteti, AQSH); vebga asoslangan Crawler instrumentariysi qo'llangan (Berlin universiteti, Germaniya); turkiy tillar bo'yicha lingvistik annotatsiyalangan korpusning morfologik, sintaktik va semantik teglash tizimi ishlab chiqilgan (Amaliy Semiotika instituti, Tatariston); ikki bosqichli morfologik analizatorni korpus tahliliga moslashtirish, gaplarni segmentlash, tokenayzer, sintaktik annotatsiyalangan korpusning universal tobelik nazariyasi, ko'p komponentli so'zlarning standartlarini ishlab chiqish kabi masalalar tadqiq qilingan (Istanbul texnika universiteti, Turkiya); nutq uslublari bo'yicha qozoq tilining millliy korpus menejeri ishlab chiqilgan (Ahmad Boytursunov nomidagi til instituti, Sun'iy intellekt instituti, Qozog'iston); korpusga asoslangan til ta'limi, tobelanish nazariyasiga asoslangan parsing, korpus morfologik tahlilida FST texnologiyasi, mualliflik korpusi, milly korpus yaratishning dasturiy va lingvistik ta'minoti, korpusning morfologik va semantik analizatori, mashina tarjimasining parallel korpuslar asosida neyro texnologiyalarni yaratish, o'zbek tilining ta'limiy va web-korpusini[5] shakllantirishga doir nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent axborot-texnologiyalari universiteti, Samarqand davlat universiteti TATU filiali).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo tajribasida korpus yaratishning lingvistik, matematik va dasturiy tomonlari olimlarining tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan[6]. Chunonchi, rus va ingliz tillari bo'yicha korpus lingvistikasi turli sohalar kesimida V.Zaxarov, A.Sedov, A.Baranov, R.Potapova, V.Rikov, U.Frensis, N.Leontyeva, V.Martin, S.Kubler, A.Laurens, E.Etwell, S.Hunston, L.Boizou, McKenneri, J.Grafmiller, J.Grieve, N.Grum, S. Hansson, K.McAuliff, M.Malberg, P.Milin, A.Murakami, R.Peych, A.Schembri, P.Tompson, B.Vinter, G.Lich kabi xorijiy olimlar[7] tomonidan hamda turkologiyada turk tili korpusi bo'yicha Aksan, Deniz Zeyrek, Kemal Oflazer, Umut Özge Bular; uyg'ur tili bo'yicha Yusup Aibaidulla, Kim-Teng Lua; boshqird tili bo'yicha L.A.Buskunbaeva, Z.Sirazitdinov; hakas tili bo'yicha Sheymovich, tatar tili

[5] http://uzschoolcorpara.uz; http://uzcorpus.uz/

[6] Kubler S., Zinsmeister H. Corpus linguistics and linguistically annotated corpora. – New York: Bloomsbury, 2015. –P. 321.; Martin W. Developing Linguistic Corpora: A Guide to Good Practice, OxfordBooks. 2005. http://www.ahds.ac.uk/creating/guides/linguistic-corpora/; Heike Z., Hinrichs E., Kübler S., Witt A. Linguistically annotated corpora: Quality assurance, reusability and sustainability / Corpus Linguistics: An International Handbook A. Lüdeling and M. Kytö (eds), Vol. 1, – Berlin: Mouton de Gruyter, –P. 759–76; Копотев М. Введение в корпусную лингвистику (учебное пособие). – Прага, 2014. – 264 с.; Atkins B., Zampolli A. Computational approach to the lexicon. – Oxford, 1994. –P. 494.

[7] Седов А.В. Математические модели, методы и алгоритмы построения размеченных корпусов текстов: Автореф. дис... канд. тех. наук. – Петрозаводск, 2013. – 22 с.; Anthony L. AntConc: Design and Development of a Freeware Corpus Analysis Toolkit for the Technical Writing Classroom, 2005. // IEEE International Professional Communication Conference Proceedings, – P.729-737; Atwell E. Development of tagsets for part-of-speech tagging / An international handbook. Corpus Linguistics: Mouton de Gruyter. 2008; Баранов А.Н., Михайлов М.Н., Сидоров Г.О. Динамический корпус текстов как новая технология прикладной лингвистики // Труды международного семинара Диалог'98 по компьютерной лингвистике и ее приложениям. – Т. 1998; Hunston S. Corpora in Applied Linguistics. Cambridge University Press, 2002. – 234 p.

bo‘yicha J.Suleymanov, A.Gatiatullin, O.Nevzorova, R.Gilmullin, B.Hakimov; qirimtatar tili bo‘yicha L.Kubedinova hamda tuva tili bo‘yicha A.Salchak kabi olimlarning ishlari diqqatga sazovor.

O‘zbekistonda kompyuter lingvistikasining shakllanishida dastlab lingvostatistikaga oid N.Yoqubova, M.Ayimbetov, S.Rizayev, S.Muhamedov kabi olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan[8]. S.Muhamedovning P.P.Piotrovskiy bilan hammualliflikda yozgan «Инженерная лингвистика и опыт системно – статистического исследования узбекских текстов» nomli kitobida lingvistik modellar, modellashtirish va uning tamoyillari, o‘zbekcha matnlarning kvantativ tahlillari o‘rganilgan. Shuningdek, so‘nggi o‘n yillikda kompyuter lingvistikasi sohasida A.Po‘latov, S.Muhamedova, A.Rahimov, Z.Xolmanova, N.Abduraxmonova kabi olimlarning sohaga doir o‘quv darslik va qo‘llanmalari nashrdan chiqdi[9]. Tilni kompyuter modellari, lingvistik ta’minotini yaratish, shuningdek, kompyuter metodlari yordamida lingvistik masalalarini yechishga yo‘naltirilgan monografik tadqiqotlar olib borildi[10].

Korpus lingvistikasida erishilgan natijalar kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash sohalari uchun ham til texnologiyasi borasida tub burilishlar yasadi. Bunda tabiiy tilning mashina tilini yaratish, til bo‘yicha statistik ma’lumotga ega bo‘lish, sun’iy intellektning lisoniy va nutq modellarini shakllantirish, tilning leksikografik mashina fondini yaratish kabi qator amaliy ishlar uchun o‘rganish obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

Korpus lingvistikasi turli fanlar uchun o‘rganish obyekti va vositasi sifatida foydalanilmoqda. Mazkur sohada Respublikamizning bir qator oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, ilmiy tadqiqot institutlarida mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O‘zbek korpus lingvistikasida B.Mengliyev, Sh.Shahobiddinova, Z.Xolmanova, S.Karimov, L.Raupova, Sh.Hamroyeva, N.Abduraxmonova, G.Toirova, J.Djumabayeva, G.Ergasheva,

---

[8] Ризаев С. Ўзбек тилининг лингвостатистик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 50 б.; Мухамедов С.А. Статистический анализ лексико-морфологической структуры узбекских газетных текстов: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Ташкент, 1980. –25 с.; Бектаев К.Б., Пиотровский Р.Г. Математическая лингвистика. – М.: Высшая школа, 1997. – 420 с.; Айымбетов М.К. Проблемы и методы квантитативно-типологического измерения близости тюркских языков (на материалах каракалпакского, казахского и узбекского языков): Автореф. дисс. …д-ра филол. наук. – Ташкент, 1997. – 47 с.

[9] Пўлатов А. Компьютер лингвистикаси. – Т.: Akademnashr, 2011. – 175 б.; Норов А. Компьютер лингвистикаси асослари. – Қарши, 2017. – 136 б.; Муҳаммедова С. Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. Методик қўлланма. – Тошкент, 2006.; Холманова З. Компьютер лингвистикаси (ўқув қўлланма) –Тошкент, 2019.; Abduraxmonova N.Z. Kompyuter lingvistikasi (darslik). – Toshkent: Nodirabegim, 2021. –398 b.

[10] Абдурахмонова Н.З. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (содда гаплар мисолида). филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)…дисс. – Тошкент, 2018. – 165 б.; Абжалова М. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар таҳрири дастури учун): филол.фан.бўйича фалсафа док. (PhD)…дисс. – Фарғона, 2019. – 164 б.; Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD)…дисс. – Қарши, 2018. – 250 б.; Эшмўминов А.А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD)…дисс. – Қарши, 2019. – 140 б.; Тоирова Г. Ўзбек тили миллий корпусини яратишнинг назарий ва амалий масалалари. – Германия: Globeedit, 2020. –168 б.

A.Eshmo‘minov, Sh.Gulyamova, M.Abjalovalarning tadqiqotlarini qayd etish o‘rinli[11].

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining “Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2- CBHE-JP” (2018-2021) mavzusidagi xalqaro Erasmus+ loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tili elektron korpusini yaratishning konseptologik modellarini tuzish hamda lingvistik annotatsiyalangan til korpusi uchun kompyuter texnologiyalari metodlaridan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

o‘zbek tili elektron korpusini konseptologik va strukturaviy loyihalashda xorijiy tajriba amaliyotini o‘rganish;

tilning lingvistik korpusini yaratishda morfologik va sintaktik teglash va tahlil qilishning FST va UdPipe kabi avtomatik usullarini o‘zbek tiliga tatbiq qilish orqali lingvistik algoritmni tuzish hamda lisoniy modellarini mashina tiliga o‘tkazish;

matn fragmentining reprezentativligi va qidiriv birliklari (lemma va token)ni tahlil qilish uchun matn korpusining lingvistik va dasturiy ta’minotini tuzish;

o‘zbek tili uchun korpus yaratish texnologiyalari va metodlarini lingvistik instrumentariylar yordamida amalga oshirish;

korpus menejerining formal-funksional modellari asosida korpus interfeysini shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tilidagi rasmiy, ilmiy, badiiy va publitsistik uslubdagi turli janrlarga tegishli yozma matnlar hamda parallel korpus uchun ingliz va rus tilidagi rasmiy va ilmiy materiallar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini elektron korpus yaratishning texnologiyalari va usullari, korpusni grammatik teglash va tahlil qilish modellari, o‘zbek tili korpus menejerining lingvistik va dasturiy ta’minoti tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, chog‘ishtirish, komponent tahlil, statistik, modellashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilida ilk bor *FST* (finite state trunsducer) – chekli avtomat transyuteri vositasida korpusni morfologik teglashning avtomatik usuli yordamida lemmatizatsiya va tokenizatsiya jarayonlarining lingvistik tahlil bosqichlari ishlab chiqilgan hamda morfologik ma’lumotlar bazasi, morfotaktik qoidalar tizimi shakllantirilgan;

[11] Mengliyev B., Hamrayeva Sh. Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish. – T.: Globeedit. 2020. – 50 b.; Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: филол. фанлари бўйича фалсафа докт. дисс. – Бухоро, 2018. – 165 б.; Mengliev B., Shahabitdinova Sh., Khamroeva Sh., Gulyamova Sh., Botirova A. The morphological analysis and synthesis of word forms in the linguistic analyzer // Linguistica Antverpiensia (1), 2021. – P. 703-712; Тоирова Г. Миллий корпус яратишнинг технологик жараёни хусусида. // Ўзбекистонда хорижий тиллар. Электрон илмий-методик журнал. – Тошкент, 2020. – № 2 (31) – Б.57-64. https://journal.fledu.uz/uz/ 2-31-2020.

korpusni sintaktik teglash va annotatsiyalashda universal tobelik nazariyasining UdPipe metodi orqali *CONLL-U* format namunasida o‘zbek tilining sintaktik modellari aniqlangan;

olib borilgan tadqiqotlarning amaliy ifodasi sifatida http://uzbekcorpus.uz sayti yaratilgan bo‘lib, o‘zbek tili korpus menejeri (qidiruv tizimi)ning lemma, token bo‘yicha hamda *n-gram* modeli asosida konkordanslarning qidiruv tizimi ishlab chiqilgan;

tarjima qilish algoritmi va o‘zbek tili parallel korpusining tarjima xotirasini yaratishda WordFast texnologiyasi foydalanilgan hamda o‘zbek tilining ingliz va rus tillarida tarjima birliklari muqobillarining ma’lumotlar bazasi tuzilgan;

korpusni grammatik teglash bosqichida Protege dasturi orqali ontologik modellashtirish usulining ilmiy asoslari isbotlangan;

korpusda qidirilayotgan so‘zning imloviy xatolarini aniqlash va unga yaqin bo‘lgan so‘zlar koeffisentini belgilashda qidiruv interfeysida ilova qilishda *Djaro Winkler* algoritmini qo‘llashning maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

korpusning lingvistik bazasi uchun asos bo‘luvchi turli til sathlariga doir leksik birliklarning ma’lumotlar bazasi yaratilib, mualliflik guvohnomalari[12] olingan;

tadqiqotda erishilgan natijalar http://uzbekcorpus.uz saytida o‘z ifodasini topgan;

elektron korpusning kompyuter modellaridan biri sifatida olingan ilmiy xulosalar “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutida amalga oshirilgan qisqa muddatli JHBL- 20-sonli “Oila, mahalla va gender tengligi mavzusidagi badiiy asarlarning elektron korpusini yaratish” (2020-2021) nomli loyihada foydalanilgan;

korpusning morfologik annotatsiyasi uchun qo‘llangan FST texnologiyasi vositasida *nominal (otli) va verbal (fe’lli*) guruhlarning morfotaktik qoidalari asosida lingvistik ma’lumotlar bazasi yaratilgan;

elektron korpusni grammatik teglash va annotatsiyalash jarayonida erishilgan natijalar turkiy tillarning grammatik tezaurusini yaratishda foydalanilgan[13];

tadqiqot natijalaridan korpusning morfologik va sintaktik analizatorini yaratishning kompyuter modellari orqali “Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2- CBHE-JP” (2018-2021) mavzusidagi xalqaro Erasmus+ loyihasida qo‘llanilgan;

o‘zbek tili korpusi uchun lemmatizatsiya va tokenizatsiya jarayonlarining lingvistik tahlil bosqichlari ishlab chiqilgan hamda morfologik ma’lumotlar bazasi, morfotaktik qoidalar tizimini yaratish asosida “Lingvistik protsessor va elektron korpuslar uchun o‘zbek tilining morfologik bazasi”ni shakllantirishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual

[12] Abduraxmonova N., Tuliyev U. Oila, mahalla va gender tengligi mavzusidagi badiiy asarlar elektron korpusining dasturiy ta’minoti. Intellektual mulk agentligi guvohnomasi 30.03.2021 DGU 10653; Abduraxmonova N., Tuliyev U., Maharov Q. “Oila ma’naviyati” konseptining elektron tezaurusining dasturiy ta’minoti. Intellektual mulk agentligi guvohnomasi 30.03.2021DGU 10655.

[13] ИРН: AP05132249 «Разработка электронных тезаурусов тюркских языков для создания систем многоязычного поиска и извлечения знаний» по договору № 132 от «12» марта 2018 г. http://alphabet.kz:9191/

mulk agentligi tomonidan 2021.19.02.da berilgan BGU 00394-raqamli ilmiy guvohnoma);

o‘zbek tili uchun ilk bor *FST* (finite state trunsducer) – chekli avtomat transyuteri vositasida korpusni morfologik teglashning avtomatik usuli *Uzmorphoanalyzer* – o‘zbekcha so‘zlarni morfologik tahlil qiluvchi dasturni yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan 2021.17.06.da berilgan DGU 11432 raqamli guvohnoma);

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi korpus va kompyuter lingvistikasida metodologik jihatdan asoslangan nazariy qarashlar, umummetodologik asoslarga ega materiallarga tayanib, ilmiy xulosalarga kelingani, qolaversa, dissertatsiyada qo‘yilgan vazifalarni hal qilishning aprobatsiyasi, tavsiyalarning tajribada sinalganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tavsiya qilingan va ishlab chiqilgan tizimlashtirilgan matn tuzilmalari reprezentativligi hamda matnning turli lingvistik bosqichlarda tahlil qilish bo‘yicha kiritilgan takliflar kelgusida o‘zbekcha matnlarni qayta ishlash texnologiyasi, parallel matnlar korpusi, tor soha vakillari uchun o‘rganish obyekti til va nutq hodisalariga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borishda yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarjima amaliyotida muhim manba bo‘lishi, olingan ilmiy-nazariy qarashlar oliy o‘quv yurtlari uchun «Kompyuter lingvistikasi», «Korpus lingvistikasi», «Mashina tarjimasi» kabi fanlardan ma’ruzalar o‘qish, darslik va qo‘llanmalar yaratish, elektron lug‘atlar (tarjima, tezaurus) tuzish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari bo‘yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar sifatida lingvistik annotatsiyalash tamoyillari, lisoniy modellari, avtomatik usullari (FST texnologiyasi va UdPipe usuli), korpus menejeri, qidiruv tizimi uchun tahrirlovchi dastur kabi tadqiqot xulosalaridan:

tadqiqotda amaliy natija sifatida yaratilgan http://uzbekcorpus.uz sayti web resurs sifatida Qozon Federal universitetining Hisoblash matematikasi va axborot texnologiyalari institutida Kompyuter lingvistikasi faniga doir korpus lingvistikasi hamda morfologik analizator kabi mavzularni o‘qitishda foydalanilmoqda (Qozon federal universiteti Hisoblash matematikasi va Axborot texnologiyalari instituti ma’lumotnomasi, 2021). Natijada o‘zbek tilining elektron korpusi (http://uzbekcorpus.uz) http://www.turklang.net saytida turkiy til korpuslar ro‘yxatida ilova qilinib, turkiy tillarning struktur-funksional xususiyatlarini qiyoslash hamda lingvistik resurs sifatida tabiiy til texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini yaratgan;

ilmiy natijalarning amaliy ifodasi sifatida korpus menejeri (qidiruv tizimi)ning lemma, token hamda *n-gram* modeli asosida konkordanslarning qidiruv tizimi orqali korpusda jamlangan ilmiy uslubdagi materiallar OT-F1-029. raqamli “O‘zbek davlatchiligi tarixida sug‘diy til va yozuvining tutgan o‘rni (mil.av. II –

milodiy XII asrlar)” (2017-2020) mavzusidagi fundamental grant loyihasini bajarishda maqolalar va monografiyalarni tayyorlashda ilmiy elektron manba sifatida hamda platformada yaratilgan parallel korpuslar va tarjima lug‘atlardan loyihaning amaliy natijalarini xorijiy jurnallarda chop etishda foydalanilgan. Natijada loyiha bo‘yicha olib tadqiqotlarning mazmuniy kontenti boyigan, ilmiy darajasi oshgan;

2017-2019-yillarda amalga oshirilgan OT-F1-78-“Hozirgi globallashuv davrida o‘zbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (vazifaviy uslublar tahlili asosida)”nomli fundamental loyihasida o‘zbek tili lotin yozuvidagi ko‘p jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni tayyorlashda dissertatsiya natijasi sifatida yaratilgan o‘zbek tilining elektron korpus menejeri (qidiruv tizimi)ning lemma, token, konkordans hamda so‘z birikmasi bo‘yicha qidirish kabi funksional imkoniyatlaridan foydalanilgan. Shuningdek, elektron korpusdagi besh turdagi uslubda jamlangan yozma matn fragmentlari misolida “O‘zbek tili uslubshunosligi” o‘quv qo‘llanmasida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2021-yil 16-sentabrdagi №3/1255-2651sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning mazmuniy kontenti kengaygan, maqolalarning turli kontekstda semantik maydonlarda voqelanishi korpus asosida aniqlangan;

o‘zbek tili korpus menejerining lemma, token hamda n-gram modeli asosida konkordanslarning qidiruv tizimiga doir amaliy natijalaridan “Mahalla va oila” ilmiy tadqiqot institutining JHBL-18 raqamli “Turli avlod vakillarining oilaviy qadriyatlarini tadqiq etish” (2020-2021) loyihasida foydalanilgan (“Mahalla va oila” ilmiy tadqiqot instituti 2021-yil 25-iyundagi 13-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotchilar uchun tilda aks etgan qadriyatlarning gender, yosh, va jinsga doir, qolaversa, milliy xususiyatlarini o‘rganish va ilmiy jihatdan statistikasini aniqlashda asos vazifasini bajargan;

o‘zbek tili elektron korpusini yaratishning amaliy natijalaridan JHBL-18 raqamli “O‘zbekistonda “Baxtiyor oila” web portalini yaratish” (2020-2021) loyihasida foydalanilgan. Elektron korpusda turli janrga oid oila mavzusidagi matnlarning xronologiyasi va ilmiy tavsifini tahlil qilish milliy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishda oilaning institut sifatida maqomini belgilashga xizmat qilgan (“Mahalla va oila” ilmiy tadqiqot instituti 2021-yil 25-iyundagi 12-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha mavzusiga doir tushunchalar yangi ilmiy dalillar bilan boyitilgan;

tadqiqotda amaliy natija sifatida yaratilgan o‘zbek tili korpus menejerining lemma, token bo‘yicha hamda n-gram modelli konkordans qidiruv tizimidan I-OT-2019-42 raqamli “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe’l atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” (2019-2021) mavzusidagi amaliy grant loyihasida elektron lug‘at kontentini materiallari bilan boyitishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 01/4-1638 raqamli 2021-yil 18-sentabrdagi ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tili elektron korpusining ichki korpus – parallel korpus tarjima xotirasi va tarjima segment birliklaridan foydalanib, lug‘atda aks etgan o‘zbek va ingliz tillarida inson qiyofasi, fe’l-atvori, tabiat va milliy

timsollarni ifodalovchi leksik birliklarni to‘plash va ularni ingliz va o‘zbek tillaridagi muqobillarini aniqlashga erishilgan;

O‘zbek tili korpusi uchun lemmatizatsiya va tokenizatsiya jarayonlarining lingvistik tahlil bosqichlari ishlab chiqilgan hamda morfologik ma’lumotlar bazasi, morfotaktik qoidalar tizimi hamda o‘zbek tili uchun ilk bor *FST* (finite state trunsducer) – chekli avtomat transyuteri vositasida korpusni morfologik teglashning avtomatik usullar, korpusni sintaktik teglash va annotatsiyalashda UdPipe metodi orqali o‘zbek tilining sintaktik modellari bazasi asosida o‘zbek tili uchun universal tobelik nazariyasining *CONLL-U* modeli 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti, 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili), 5120900 – O‘zbek-ingliz tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishlari bakalavr talabalari, magistrlar, doktorantlar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislari, shuningdek, malaka oshirish va pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash kursi tinglovchilariga mo‘ljallangan Kompyuter lingvistikasida darsligida o‘z ifodasini topgan. (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 20-iyuldagi 654-sonli buyrug‘i). Natijada darslikning g‘oyaviy asoslari nazariy va amaliy jihatdan asoslangan hamda ilmiy ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 21 ta xalqaro, 21 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda e’lon qilingan. Muallifning quyidagi https://scholar.google.com/citations?user=kEkD0kgAAAAJ&hl=en, https://www.researchgate.net/profile/Nilufar-Abdurakhmonova, https://orcid.org/0000-0001-9195-5723 kabi platforma profillarida ilmiy ishlari muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 65 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (shundan ikkitasi xorijiy jurnalda), 1 ta monografiya, 3 ta mualliflik guvohnoma, 1ta Web of science va 3 ta Skopus bazasiga indekslangan nufuzli xalqaro hamda Respublika konferensiyalarda 46 ta ilmiy maqola va tezis e’lon qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 220 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "*Korpus – til texnologiyasining o'rganish obyekti"* deb nomlangan. Bobning "*Zamonaviy korpus lingvistikasining analitik tahlili"* mavzusidagi birinchi faslida korpus lingvistikasi va korpus texnologiyalariga bildirilgan ilmiy qarashlar tahlil qilinib, korpusning model yoki metodologiya sifatida berilgan ilmiy tavsifi, kompyuter va korpus lingvistikasida korpus texnologiyasi va korpusga asoslangan tahlil kabi yo'nalishlarda jahon va turkologiyada Graeme Kennedi, Friedrich Wilhelm Kaeding, Martin Weisser, Viktor Zaxarov, Charlotte Taylor[14], Charlez Meer[15], Noam Chomskiy, Dougles Biber[16], Sandra Kübler[17] kabi olimlarning tadqiqotlari misolida tahlilga tortilgan va ularga munosabat bildirilgan. Dastlabki elektron yozma korpuslar sifatida Braun (1964), LOB (1978), FROWN (1999), FLOB (1998), Kolhapur (1978), ACE (1986), Lund korpusi; og'zaki korpuslar sifatida SEU, LLC, SEC (ingliz tilining o'g'zaki matn korpusi), "Map task" korpusi hamda HKCSE (inglizcha og'zaki matnlarning gong gonk korpusi) kabilar solishtirib, ularning kontenti va formal-funksional modellari tahlil qilingan.

"*Korpuslar taksonomiyasi*" deb nomlangan ikkinchi fasl korpuslarning turlari muayyan parametrlarga ko'ra tasniflashi masalasiga bag'ishlangan. Unga ko'ra korpuslar 1) ma'lumotlar bazasining turlari: a) og'zaki; b) yozma; d) aralash; 2) matnni muayyan tilda berilishi: a) ingliz; b) rus; d) nemis; 3) matn tarjimalarining paralleligiga ko'ra: a) ikki tillik; b) uch tillik; d) ko'p tillik; 4) uslubiga ko'ra: a) so'zlashuv; b) publitsistik; d) badiiy; e) rasmiy; f) ilmiy; 5) bazadan foydalanish imkoniyatiga ko'ra: a) ochiq; b) yopiq; 6) geografik holatiga ko'ra: muyyan geografik joy yoki bir nechta davlatga tegishli ekanligi; 7) korpus kontentiga ko'ra: a) umumiy; b) maxsus turga bo'linishi qayd etilgan.

M.Z.Kurdi og'zaki matn korpuslarini ma'lumotlar bazasiga kiritishda og'zaki nutqdan yozib olish, gapiruvchi buyruq operatorlari, inson-mashina dialogi, mashina yordamidagi inson-inson dialogi hamda ko'p modelli dialog tizimi orqali amalga oshirish mumkinligini qayd etadi. Muvozanatlashgan korpus, piramidali va imkoniyat darajasi cheklangan korpus turlari tematik ko'lamiga ko'ra farqlanadi. Lingvografik korpusning manbalar moduli, lingvografik tavsif, leksik birliklar kabi uch qismdan iborat ekanligi ilmiy asarlarda qayd etilgan fikrlar asosida dalillangan[18]. Ushbu faslda yuqorida keltirilgan tasniflarga xos turli tillarda yaratilgan korpuslarning tavsifi va funksional imkoniyatlari haqida ma'lumotlarga munosabat bildirilgan.

Birinchi bobning "*Kompyuter lingvistikasida korpusshunoslik masalalari"* deb nomlangan uchinchi faslida matnlarni yig'ish, tasniflash, annotatsiyalash, mashina uchun tabiiy tilni tushunish va mashina tarjimasi jarayonini lingvistik

[14] Taylor Ch. What is corpus linguistics? What the data says. // ICAME Journal, 2008. – № 32. – P. 179-200.
[15] Charlez M. English corpus linguistics: An introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 168 p.
[16] Bern H., Heiko N. The Oxford Handbook of Linguistic Analysis. / Dougles Biber Corpus-based and Corpus-driven analysis of language variation and use. –UK: Oxford University, 2015. – P. 193.
[17] Sandra K., Heike Z. Corpus linguistics and linguistically annotated corpora. – New York: Bloomsbury Academic. 2015. – P. 4.
[18] Каримуллина Р. Н., Каримуллина Г. Н. О сводном лингвографическом корпусе татарского языка / Слово и словарь vocabulum et vocabularium // Сборник научных материалов МИНСК ИЗДАТЕЛСТВО «ЧЕТЫРЕ ЧЕТВЕРТИ» 2017. – С. 18.

jihatdan modellashtirish (NLP-natural language processing) kabi masalalarni yechishda korpusning amaliy jihatlari tahlilga tortilgan.

Ilmiy manbalarda korpus lingvistikasi tabiiy tilni qayta ishlash sohasining (NLP) bir yo‘nalishi sifatida qayd etiladi[19]. Ayrim ma’lumotlarda esa kompyuter lingvistikasi yoki amaliy lingvistikaning muayyan yo‘nalishi sifatida qaraladi. Jurafskiy, Martin (2008), Manning, Schütze (1999), Roark, Sproat (2007) kabi olimlarning nuqtayi nazaricha, matnlar korpusini annotatsiyalash va uni lingvistik tahlil qilishda kompyuter lingvistikasi o‘zining optimal usullariga ega bo‘lib, murakkab masalalarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi[20]. Graeme Kennedining fikricha[21], garchi korpus lingvistikasi kompyuter texnologiyalarning rivojlanish bosqichida mavjud bo‘lmasa-da, kompyuter xotirasi imkoniyatlarining kengayishi natijasida lingvistik tahlil muammolarini matn asosida o‘rganish sohada ayrim muammolarga yechim bo‘la oldi.

Turli maqsadlardan kelib chiqib korpus dizayni, hajmi hamda har bir korpusning individual xarakteri shakllantiriladi. Korpus kompyuter lingvistikasining mashina tarjimasi, nutq sintezatori, matn tahlili, sentiment tahlil va boshqa yana bir qator yo‘nalishlar uchun tadqiqot obyekti vazifasini bajaradi. Chunonchi, statistik mashina tarjimasi texnologiyasi katta hajmdagi korpuslardan olingan ma’lumotlarga asoslanadi. Shu bois kompyuter lingvistikasida til va nutq bilan bog‘liq hodisalar korpus texnologiyasi yordamida o‘rganiladi.

Dissertatsiya ishining “*Elektron korpus yaratish texnologiyalari va usullari*” deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi fasli “Korpus yaratish texnologiyalari: lingvistik instrumentlar” deb nomlanadi. Ushbu faslda korpus yaratish uchun tayyor holda foydalanish mumkin bo‘lgan instrumentariy va platformalarning tadqiqiga doir masalalar yoritilgan. CLARIN platformasi umumiy til resurslari va texnologiyalari infrastrukturasiga doir turli lingvistik instrumentlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Dunyo tillari bo‘yicha korpus texnologiyasiga mo‘ljallangan instrumentlar mazkur saytda https://corpus-analysis.com joylashgan bo‘lib, mazkur faslda AntGram, AntConc, AntWordProfiler, AntCorGen, BFSU Collocator, BFSU Sentence Collector, BNCWeb, LiC, FrameNet, WordSmith kabi korpus interfeyslari tayyor instrumentariylar sifatida korpus yaratish hamda matn bilan bog‘liq tahlillarni amalga oshirishning funksional imkoniyatlari ochib berilgan.

Bobning ikkinchi fasli “*Maxsus korpuslar yaratishning dasturiy vositalari*” deb nomlanib, foydalanuvchilarning muayyan maqsadlari yoki tadqiqot yo‘nalishiga ko‘ra uncha katta bo‘lmagan matn janrlari va hajmiga ko‘ra teng taqsimlangan o‘zbek tili uchun maxsus korpus yaratishning *AntConc va BootCat* ilovalaridan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan.

Laurens Antoni tomonidan yaratilgan *AntConc* dasturi so‘z va kalit so‘zlar generatori, konkordanseri, *n-gram* hamda so‘z birikmasi kabi korpus tahliliga

19 Mohamed Z.K. Natural Language Processing and Computational Linguistics: Speech, Morphology and Syntax. – Great Britain, USA: Wiley-ISTE 2016. –P. 12.

[20] Jurafsky D., Martin J. H. Speech and language processing, 2nd ed. Upper Saddle River: Prentice Hall, 2008; Manning, C., Schütze H. Foundations of statistical natural language processing. –Cambridge: The MIT Press, 1999; Roark, B., Sproat R. Computational approaches to morphology and syntax. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 316 p.

[21] Graeme K. An introduction to corpus linguistics. – London: Longman, 1998. – P. 2.

mo‘ljallangan. AntConc ilovasi uch asosiy parametrdan iborat: korpus fayllari, tablar, qidiruv interfeysi va uning moslamasi. Korpus fayllari ikki xil imkoniyatga ega: fayllarni alohida ochish (*open files*) yoki bir vaqtning o‘zida bir nechta papkalarga joylangan fayllarga murojaat qilish (*open directories*). Tablar panelida quyidagi instrumentlar joylashgan: qidiralayotgan so‘zning matn tarkibida kelish grafigi (plot), konkordanser (concordance-KWIC kines), so‘zlar chastotasini (frequincy) aniqlovchi parametr, kalit so‘zlar (key words). Menyu bo‘limidan foydalanilayotgan tilning yunikodini aniqlash, *n-gram* bo‘yicha so‘zlarning rangini tanlash, teglarning metama’lumotlarini berish tartibini o‘zgartirish yoki umuman yashirish vazifasini bajaradi; tokenlar uchun maxsus funksiya kiritilgan bo‘lib, harflar, raqamlar, tinish belgilar, simvollar, oraliq masofa kabi tokenlar guruhini belgilash imkoniyati mavjud. Shuningdek, ishimizda *BootCat* instrumenti internetdagi ma’lumotlarni qisqa muddatda to‘plash imkoniyatiga egaligi hamda uning yordamida muayyan termin orqali sohaviy terminologik bazani yaratish imkoniyati mavjudligi namunalar misolida dalillangan.

Bobning uchinchi fasli “*Web korpusni tuzishda lingvistik instrumentariylar va platformalar*” deb nomlanib, unda internet sahifalaridan olingan matnlar asosida korpus yaratishning Sketch Engine platformasi va unda ilk bor o‘zbek tili uchun yaratilgan *Turkic web-uzbek* korpusi haqida ma’lumot keltirilgan. Bundan tashqari WordSmith, BlackLab kabi dasturiy ilovalar yordamida korpus yaratish hamda matn korpusini avtomatik annotatsiyalash funksiyalariga ega WebLicht va CLARIN-D platformalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Bobning “*Parallel korpus yaratishning kompyuter usullari*” deb nomlangan to‘rtinchi fasli ikki tilli o‘zbekcha-inglizcha, inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha, ruscha-o‘zbekcha parallel matn yaratishning gap segmentlariga ajratish, tarjima birliklari bo‘yicha ularning muqobil variantlarini aniqlash, tarjima xotirasi va glossariysini yaratishda *WordFast* texnologiyasining afzalliklari va funksional imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, olib borilgan izlanishlar natijasi sifatida parallel matn yaratishning algoritmi ishlab chiqilgan:



Dissertatsiyaning uchinchi bobi “*Korpusni grammatik teglash va tahlil qilish modellari”* deb nomlangan. Uning “*Lingvistik annotatsiyalash (razmetka) turlari*” deb nomlangan birinchi faslida matnni annotatsiyalash quyidagicha tasniflangan[22]: ekstralingvistik (metarazmetka) – matn (muallifi, nashr yili, nashriyot nomi, yili, janri, mavzusi) va uning muallifi haqida ma’lumot; 2) matn tuzilishi – sarlavha, satrboshi, gap, so‘z shakli; 3) lingvistik sathiga ko‘ra: a) morfologik (POS-tagging)

[22] Боярский К. К. Введение в компьютерную лингвистику. – Санкт-Петербург, 2013. – С. 28.

razmetka; b) sintaktik razmetka – bunda so‘zlar o‘rtasidagi sintaktik aloqalar va gap turlariga ko‘ra ma’lumotlar keltiriladi; d) semantik razmetka – matnda ifodalangan tushunchalarning predmet va predmet bo‘lmagan nomlari, faoliyat turlari hamda semantik munosabatlariga ko‘ra farqlanadi; e) anaforik razmetka – matnning biror elementi boshqa matnda anglashilgan mazmun bilan aloqadorlikda aniqlanadi va lingvistik jihatdan tahlil qilinadi; f) prosodik razmetka – urg‘u, ritm, mantiqiy urg‘u va boshqalariga ko‘ra matnning lingvistik jihatdan ifodalanishi qayd etilgan. Shuningdek, Lich[23] qoidasiga asoslangan annotatsiyalash[24] mezonlari sifatida quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqligi qayd etilgan**:** 1) korpusdan annotatsiya qismi olib tashlanganda, u oddiy korpusga aylana olishi; 2) matndan olingan annotatsiyalar o‘z-o‘zini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘lishi hamda matn qolipiga mos bo‘lgan boshqa matndan annotatsiyalarni qabul qilishi; 3) annotatsiya modeli so‘nggi foydalanuvchi uchun qo‘llanish yo‘riqnomasiga asoslanishi; 4) annotatsiya kim tomonidan va qanday yaratilganligi aniq ko‘rsatilishi; 5) so‘nggi foydalanuvchi korpus annotatsiyasi bexato emasligini, shunchaki foydali instrument ekanligidan xabardor bo‘lishi; 6) annotatsiya strukturasi umum tomonidan qabul qilingan me’yorlarga asoslanishi; 7) hech bir annotatsiya o‘zidan oldingi annotatsiyalarni standart deb qabul qilmasligi va standart me’yorlar tajriba davomida yuzaga chiqishi mumkin. Annotatsiyani formatlashning uch xil shakli mavjud[25]: 1) chiziqli (gorizontal ko‘rinishdagi) format– har bir so‘zdan keyin uning grammatik ma’lumoti lingvistik metama’lumot o‘rnida keltiriladi; 2) kalit so‘zlar bilan ifodalanuvchi chiziqli format – korpus ma’lumoti bilan tashqi ma’lumot bilan bog‘lanib, lingvistik annotatsiyani ifodalaydi; 3) vertikal format: har bir qatorda tokenning muayyan morfosintaktik yoki belgilar guruhi bo‘yicha jadvalda ma’lumotlar beriladi.

“*Grammatik sathda ontologik modellashtirishning Protégé texnologiyasi tatbiqi”* deb nomlangan bobning ikkinchi faslida lingvistik razmetkalashning grammatik asoslari ontologik modellashtirish usuli orqali tahlilga tortilgan. Protégé dasturi yordamida ma’lumotlar bazasi uchun freymvork va ontologiya yaratishning maxsus tahrirlovchi dasturi sifatida Protégé-freym va Protégé-OWL instrumentariylarining funksional imkoniyatlari o‘rganilgan. Ushbu dastur orqali o‘zbek tilining grammatik modellari va ularning toksonomik munosabatlari tadqiq etilgan. Mazkur texnologiya muayyan sohada bilimlar bazasini o‘zaro bog‘lash va ularning formal modellarini yaratishda qator afzalliklarga ega[26]. Mazkur dasturiy muhit yordamida tur va tasnif munosabatlarni iyerarxik jihatdan lingvistik modellar asosida semantik tahlil qilish mumkin. Ontologik modellashtirish usulida o‘zbek tilining morfologik va sintaktik kategoriyalar tezaurusi yaratilgan[27].

[23] Geofrey L. – matn annotatsiya bo‘yicha qoidalarni rivojlantirgan ilk korpus tilshunosi.
[24] www.lancaster.ac.uk/fss/course/ling/corpus/corpus2/2MAXIMS>HTM
[25] Захаров В.П., Азарова И.В. и др. Моделирование в корпусной лингвистике: Специализированные корпусы русского языка. – Санкт-Петербургского университета, 2019. – С. 49.
[26] https://ru.wikipedia.org/wiki/Prot%C3%A9g%C3%A9
[27] http://alphabet.kz:9191/





Bobning uchinchi fasli "*O'zbekcha matnlarni morfologik teglash va tahlil qilishda FST texnologiyasi tadqiqi"* deb nomlanadi. Ushbu faslda lingvistik annotatsiyalangan korpus uchun FST texnologiyasi yordamida o'zbek tilini mashina tiliga o'tkazish va uning modellarini universal tobelanish platformasining teglash tizimiga moslab, morfologik tahlil bosqichlari ishlab chiqilgan.

O'tgan asrning 90-yillarida morfologik tahlil qilish *generativ model*, *paradigmatik model*, *ikki tarkibli morfologik model*[28] kabi metodlarga asoslanilgan bo'lib, bunda ehtimollik darajasiga ko'ra lingvistik resursdan olingan natijalar statistik tahlil qilinadi. Avtomatik usulda morfologik tahlil qilish jarayoni quyidagi turlarga ko'ra tasniflanadi:

1. Mantiqiy ko'paytirish metodi orqali morfologik tahlil.
2. Lug'atsiz jadval orqali morfologik tahlil.
3. So'zlar asosiga asoslangan morfologik tahlil (ushbu tahlil turi Yevropa tillari uchun moslashtirilgan. Unda qo'shimcha yordamchi jadvallardan foydalaniladi).
4. So'zshakllarga (morfotaktik qoidalarga ko'ra) asoslangan morfologik tahlil.

Matnni normallashtirish jarayoni morfologik tahlil bilan bog'liq bo'lib, quyidagi bosqichlarga ega bo'ladi: tokenizatsiya (matndagi so'z shakllarini aniqlash)->lemmatizatsiya (so'zlarning lug'atdagi ifodasini aniqlash)->stemmizatsiya (derivativ so'zlarning o'zagini aniqlash).

[28] Cerstin M., Michael P. (eds.) Computational Morphology in the Framework of the SLIM Theory of Language / State of the Art in Computational Morphology. –Zurich, 2009. –P. 15.

FST texnologiyasi dastlab fin tili uchun Koskenniemi, ingliz tili morfologiyasi uchun Antvort tomonidan qo‘llangan[29]. Keyinchalik ikki bosqichli morfologik analizator yapon[30], koreys[31], turk[32], arab[33] va mongol[34] tillari doirasida foydalanilgan. Tadqiqot doirasida chekli morfologik avtomat uchun quyidagi fayllar yaratilgan: 1) “Qoidalar-Rules” – alifbo, fonologik qoidalar va fonetik hodisaga uchraydigan maxsus belgilar (bunda o‘zbek tili uchun kirill va lotin grafema asos qilib olindi; 2) Lug‘at–leksikon (bunda barcha so‘z turkumlarining o‘zak va sodda yasama shakli kiritilgan). FST texnologiyadan foydalanib, mavjud morfologik leksikon transyuterda, qoidalar ikki bosqichli jarayonda kompilyatsiya qilinadi. So‘ng mazkur leksikon va qoidalar birlashtiriladi. Buning uchun *compose* buyrug‘idan foydalaniladi. FST– chekli avtomat bo‘lib, ikkita *tasma* orqali harakatlanadigan model hisoblanadi. Masalan, *bola* so‘zi dasturiy ta’minotga kiritilganda, *ijod* so‘zi hosil bo‘lishi mumkin.



O‘zbek tili korpusining morfologik analizatorida lug‘at transyuteri va ikki bosqichli qoidalar transyutiri o‘zaro birlashtiriladi. Quyida FST yordamida o‘zbek tilining morfotaktik qoidalarini tahlil qilamiz. FST texnologiyasi deklarativ til bo‘lgani bois kompyuter modeliga o‘qitiladigan qoidalarni model holatiga keltiramiz.

LEXICON NumC
+SG: Poss1;
+PL:lar Poss2;

LEXICON NumC (consonant) – undosh harf bilan tugagan so‘zning son kategoriyasida kelishi. LEXICON NumC+SG=Poss1 bu birlik son kategoriyasining undosh bilan tugagan so‘zning 1-holatini ko‘rsatadi. LEXICON NumC+ *PL:lar* =Poss2 ushbu model undosh bilan tugagan so‘zga ko‘plik qo‘shimchasining 2-holatini bildiradi.

LEXICON NumV
+SG: Poss2 ;
+PL:lar Poss2;

LEXICON NumV +SG= Poss2 unli bilan tugagan so‘zning birlik shaklini ifodalaydi. Demak, deklarativ tilda *LEXICON NumV* so‘zning modeli sifatida bundan keyin keladigan so‘zlarning pozitsiyalarini belgilashga xizmat qiladi.

LEXICON Poss1

[29] Antworth E.L. PC-KIMMO: A Two-level Processor of Morphological Analysis, Summer Instıtute of Linguistics, Dallas, TX. 1990.
[30] Alam Y.S. Two-level Morphological Analysis of Japanese // Texas Linguistics Forum 22, 1983. –P. 229-252.
[31] Kim D. B., Lee S. J., Choi K.S., Kim G.C. A two-level morphological analysis of Korean // In Proceedings of the 15th conference on Computational linguistics - Volume 1 (COLING '94), 1994. –P. 535-539.
[32] Oflazer K. Two-level description of Turkish morphology // Literary and Linguistic Computing, Literary and Linguistic Computing Volume 9, Issue 2. 1994. –P. 137-148.
[33]Kenneth R. B. Arabic Finite State Morphological Analysis and Generation. // COLING-96. –Cophenagen, 1996. –P. 89-94.
[34] Jaimai P., Zundui T., Chagnaa A., Ock C.Y., PC-KIMMO-based Description of Mongolian Morphology // International Journal of Information Processing Systems Vol.1, No.1, 2005. –P. 41-48.

+PP1+PSG:m Case ;
+PP2+PSG:ng Case ;
+PP3+PSG:si Case ;
+PP1+PPL:miz Case ;
+PP2+PPL:ngiz Case ;
+PP3+PPL:i Case ;
0:0 Case ;

Yuqoridagi model so‘zga [LEXICON Poss1] qo‘shilishi mumkin bo‘lgan morfotaktik pozitsiyalari FST qoidalariga ko‘ra alohida kiritiladi. Har bir kiritiladigan model barcha so‘zlarning morfologik tahlili uchun yagona va universal bo‘lishi lozim. Morfologik teglangan har bir korpusdagi segment birlik so‘z va so‘z hosilasi (grammatik ko‘rsatkichi) bo‘yicha morfologik teglangan birliklar bilan til modeli bo‘yicha bazaga kiritiladi. Yuqoridagi model tahlil qilinsa, ixtiyoriy so‘zning grammatik ko‘rsatkichi o‘sha so‘zning nol ko‘rsatkichiga qarab: nominal turga kiruvchi so‘z birlik yoki ko‘plik shaklda keluvchi son kategoriyasi, so‘ng egalik qo‘shimchalar va undan keyin keluvchi kelishik kategoriyasiga ajraladi. Morfologik tegger va uning tahlilini amalga oshirish uchun nominal (otli) va verbal (fe’lli) guruhlarga ajratib olingan so‘zlar deklarativ til modeliga moslashtiriladi. FST texnologiyasining asosiy konsepti quyidagi uchlikka asoslangan[35]:



Korpusda qo‘llaniladigan 

si ham lotin va kirill grafikasida bo‘lgani bois ikki alifboni deklarativ tilda % belgi bilan birlashtiramiz. So‘ng orfografik qoidalarda uchraydigan har bir qoidaning ikki grafemaga moslashgan morfofonologik qoidasi yoziladi:

a. %##:0
%^Y:0 %^Y:y %^Y:й
%^G:g %^G:k %^G:q %^G:ғ %^G:г %G:к
%^K:k %^K:g %^K:г %^K:к
%^Q:q %^Q:g %^Q:ғ %Q:қ
%^A:a %^A:0 %^A:a
%^U:u %^U:0 %^U:y
%^I:i %^I:0 %^I:и

1.Istisnoli qoidalar to‘plami. Ushbu qoidalar to‘plamida fonetik o‘zgarishga uchraydigan barcha morfem qo‘shimchalar modeli yoziladi:

[35] Kenneth R.B., Lauri K. Finite State Morphology. –US: CSLI publication, 2003. – P.44.

"Y is dropped after consonant"
%^Y:0 <=> [:LatCons | :LatCons] [:‘]* [:%-]* _ ;
"Y remains after Latvowels"
%^Y:y <=> :LatVowel [:‘]* [:%-]* _ ;
"Y remains after Cyrvowels"
%^Y:й <=> :CyrVowel [:‘]* [:%-]* _ ;
"G remains g"
%^G:g <=> [:LatConsMinus |:LatVowel] _;
"G becomes k after k"
%^G:k <=> :k _;

2. Keyingi bosqich ollomorflar uchun maxsus belgilar kiritib olish jarayoni.

Ollomorflarning FST uchun kiritiladigan har bir tegi (Multichar_Symbols) o‘zgaruvchi fonemalar va morfotaktik qoidalari uchun mashina tilida o‘qitib olinadi. Masalan, ^Y belgi –u va –yu yuklamasining o‘zgarish pozitsiyasini ko‘rsatadi.

^Y
^K
^Q
^G
^A
^U
^I
^V
^W
^P
+VERB +CONV
+PAST +PRES +FUT
+PP1 +PP2 +PP3 +PSG +PPL
+P1 +P2 +P3 +SG +PL
+NOM +ACC +GEN +DAT +LOC +ABL
+PART
+NOUN
##

Natija namunasi:
shahar+NOUN+PL+PP3+PSG+ELIPT+GEN:shaharlarinikini
shahar+NOUN+PL+PP3+PSG+ACC:shaharlarining

Natijada o‘zbek tili elektron korpusning morfologik teglash qismi uchun FSTda erishilgan natijalardan foydalanildi:



Ishimizning morfologik bazasida atoqli otlar va iboralar ham alohida (*subdata*) baza sifatida kiritilgan. Bundan tashqari o‘zbek tilidagi ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari va ushbu fe’llarning har biriga qo‘shilish mumkin bo‘lgan orttirma nisbat qo‘shimchalarining morfotaktik belgilari ma’lumotlar bazasiga kiritildi. Shuningdek, mazkur korpus muvozanatlashgan korpus sanalgani bois matnlar kontenti sport, madaniyat, ma’rifat, din, ta’lim, fan, siyosat, qonun va adabiyot kabi turli janrdagi matnlarning umumiy soni teng miqdorda taqsimlandi.



Korpus menejerida matnda uchragan so‘zning asosi va so‘z turkumi ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lmasa, quyidagi algoritm orqali masalani yechish usulidan foydalanildi. Berilgan *w*-so‘z, $w = l \oplus \sum_{i=1}^{n} m_i$, *l*-lemma va $m_i \in \{m_1, \ldots, m_n\}$ (o‘ngdan chapga morfemalarni ajratish orqali aniqlangan) morfemalar ketma-ketligidan iborat bo‘lsa, u holda *l* lemma *V* – verbal guruh yoki *N*- nominal guruhga tegishliligini aniqlovchi *p* argumentning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$p = \begin{cases} 0, agar\ n \geq 2\ va\ m_1 \in M_v, \\ 1, agar\ n \geq 2\ va\ m_1 \in M_n. \end{cases}$$

Bunda M_v-verbal so‘zlarga qo‘shiluvchi morfemalar to‘plami, M_n-nominal so‘zlarga qo‘shiluvchi morfemalar to‘plami. Agar *p*=0 bo‘lsa, u holda *l* lemma *V* guruhga, aks holda *N* guruhga tegishli bo‘ladi, ya’ni *l* haqida qaror qabul qilish unga qo‘shilgan morfemalar sonining kamida ikkita bo‘lishi va qo‘shilgan birinchi morfemaning qaysi guruhga tegishliligiga bog‘liq bo‘ladi.

“*O‘zbekcha matnlarni sintaktik teglash va tahlil qilishda UdPipe texnologiyasi*” deb nomlangan to‘rtinchi faslda o‘zbek tili korpusining kompyuter modeli sifatida sintaktik annotatsiyalash va teglash jarayoni tahlil qilindi. Ma’lumki, dunyo bo‘yicha sintaktik annotatsiyalangan korpuslarning dastlabki namunalardan biri sifatida ingliz tilining Lankaster-Leeds Treebankini ko‘rsatish mumkin. Tadqiqotimizda sintaktik teglash va tahlil qilish bo‘yicha chex tilining Praga sintaktik annotatsiyalangan korpusi (PDT), arab tilining arab tili sintaktik annotatsiyalangan korpusi (PADT), slavyan tilining slavyan (SDT), shved tilining Talbanken, nemis tilining Negra / TIGER hamda turk tilining Metu Sabanci kabi korpuslari orqali Sabine Buchholz[36] tomonidan olib borilgan ishlariga e’tibor qaratildi.

Sintaktik annotatsiyalash lingvistik korpusning eng muhim tahlil qilish bosqichlardan biri sanaladi. Sintaktik tahlil NLP va til texnologiyasining qator yo‘nalishlarida olib boriladigan muayyan darajadagi masalalarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, matn tahlilida lisoniy modellar va gap bo‘laklarining sintaktik munosabatlarini kompyuter yordamida tahlil qilish anchagina murakkab masaladir. Sintaktik tahlil (parsing) matndagi sintaktik munosabatlar va strukturalarni avtomatik tarzda sintaktik strukturalarga ajratadi. Parsing kompyuter lingvistikasi va NLPning deyarli barcha yo‘nalishlari (mashina tarjimasi, savol-javob, axborot qidiruv tizimi, sentiment tahlil)da foydalaniladi. Mazkur sohada parsing uchun sintaktik teglashning turli formatlari va usullari ishlab chiqilgan. Ularga *tobelik grammatikasi, bevosita tarkibiy qismli grammatika, aralashgan nazariya (sintaktik guruh nazariyasi*), *erkin kontekstli grammatika* kabilar kiradi.

Universal tobelik nazariyasi www.universaldependency.org platformasida o‘rin topgan. 2018-yil hisobiga ko‘ra 132 ta sintaktik tahlil qiluvchi korpusning (treebank) 74 tasi http:// universaldependencies.org/ platformasidan o‘rin olgan. Ularning ba’zilari *tobelik nazariyasi asosida, ayrimlari tarkib toptiruvchilar nazariyasiga* asoslangan[37].

Ishimizda UdPipe texnologiyasi yordamida matnni sintaktik jihatdan teglash jarayoni amalga oshirilgan. Ushbu jarayon CoNLL-U formatda o‘z ifodasini topgan. Gaplarning sintaktik jihatdan tavsifini berishda bir nechta tarkibli so‘zlar (ibora, qo‘shma so‘z) alohida baza sifatida olingan. Odatda gaplarni segmenter yordamida segment birliklarga ajratishda gaplar orasidagi qator yoki satr boshiga

[36] Sabine B., Erwin M. CoNLL-X shared task on Multilingual Dependency Parsing https://www.aclweb.org/ anthology/ W06-2920.pdf. – P. 152.

[37] Przepiórkowski A., Patejuk A. From Lexical Functional Grammar to enhanced Universal Dependencies.// The UD-LFG treebank of Polish Lang Resources & Evaluation https://doi.org/10.1007/s10579-018-9433.

qaraladi. Bu borada Milan Straka gaplarni sintaktik jihatdan tahlil qilishning muayyan model orqali amalga oshirishning har bir algoritmik tavsifiga alohida to‘xtalib o‘tadi[38]. Unga ko‘ra UdPipe tayyor model sifatida *gaplarni segmentlash, tokenizatsiyalash, so‘z turkumlarini teglash, lemmatizatsiyalash va tobelanishga asoslangan sintaktik tahlil*ni kompleks ravishda amalga oshiradi.

Tadqiqotimizda morfologik jihatdan tahlil qilingan FST yordamida aniqlangan annotatsiyalash tizimidan foydalanilgan. Matnlarni sintaktik jihatdan teglashda har bir so‘zning uch belgisi *UPOS, XPOS, FEATS* alohida CoNLL-U format orqali tahlil qilindi. Morfologik teglash (Part-of-speech tagging) matnga kiritilgan har bir so‘zning so‘z turkumi bo‘yicha markerini belgilash jarayonidir. Teglash algoritmiga kiritiladigan ma’lumot – teglar majmui va so‘zlarning ketma-ketligidan iborat bo‘ladi. Bu yerda:

- **ID**: so‘z indeksi, har bir qator biror jumla boshlanganda yangi qatordan yoziladi.
- **FORM**: so‘z shakli yoki punktuatsion belgilar.
- **LEMMA**: lemma yoki so‘zning o‘zagi.
- **UPOS**: universal so‘z turkumi tegi (POS tag)
- **XPOS**: tilning maxsus so‘z turkumi tegi; agar bo‘lmasa, tag osti belgisi _ qo‘yiladi.
- **FEATS**: agar mavjud bo‘lsa, morfologik kategoriyalar tartibi
- **HEAD**: so‘zning ID raqami (so‘zning gapda nechinchi tartibda turgan indeksi) yoki nol (0) tartibi.
- **DEPREL**: Bosh so‘zga nisbatan tobelik munosabati. Sintaktik annotatsiyalangan korpuslarda ushbu tobelik munosabatlari to‘plamlari o‘rin olgan.
- **DEPS**: kengaytirilgan tobelik grafigi (ixtiyoriy), agar yozilmasa _ qo‘yiladi.
- **MISC**: boshqa annotatsiya kodi.

Ushbu UdPipe metodi fin va turk tili uchun qo‘llangan bois aynan agglyutinativlik tabiatiga xos tillar uchun mos tahlil usuli hisoblanadi. Tadqiqotimizda shu tartibda Nabi Jaloliddinning “Umar Hayyom” romanidan olingan ikki ming matn segment birlik sifatida CONLL-U formatda avtomatik usulda sintaktik tahlil qilingan modellar o‘rganildi. Ishimizda tanlangan formatning o‘ziga xosligi shundaki, CONLL-U orqali ko‘p tilli tizimlar uchun mos keladi hamda so‘zlarni o‘zaro solishtirish imkoniyati mavjud.

Teglashning eng oxirgi bosqichlari *UPOS, XPOS, FEATS* sifatida tahlil qilinadi.

[38]Straka M., Strakova J. Tokenizing, POS Tagging, Lemmatizing and Parsing UD 2.0 with UDPipe https://ufal.mff.cuni.cz/~straka/papers/2017-conll_udpipe.pdf

ID	FORM	LEMMA	UPOS	XPOS	FEATS	HEAD	DEPREL	DEPS		MISC
	Uchrashuvda	Uchrashuv	NOUN	OT	Case=Loc|Number=Singular|Number[psor]=Singular	5		_		_
	Innovatsiya	innovatsiya	NOUN	OT	Case=Loc|Number=Singular|Number[psor]=Singular	6		_		_
	Sohasida	soha	NOUN	OT	Case=Loc|Number=Singular|Number[psor]=Singular	6		_		_
	Xalqaro	xalqaro	ADJ	SF	Degree=Pos	4		_		_
	Hamkorlik	hamkorlik	NOUN	OT	Case=Nom|Number=Singular|Number[psor]=Singular	3		_		_
	,	,	PUNCT	TB	_	_	_	_		_
	Xalqaro	xalqaro	ADJ	SF	Degree=Pos	4		_		_
	Loyihalarni	loyiha	NOUN	OT	Case=Loc|Number=Singular|Number[psor]=Singular	3		_		_
	Ishlab	ishla	VERB	F	Verb=V|ADV	3		_		_
	Chiqish	chiq	VERB	F	Verb=V|INF	3		_		_
	Va	va	CONJ	B	_	_	_	_		_
	Gumanitar	gumanitar	ADJ	SF	Degree=Pos	3		_		_
	Hamkorlik	hamkorlik	NOUN	OT	Case=Nom|Number=Singular|Number[psor]=Singular	3		_		_
	Masalalari	masala	NOUN	OT	Case=Nom|Number=Singular|Number[psor]=Plural	2		_		_
	Muhokama	muhokama	NOUN	OT	Case=Loc|Number=Singular|Number[psor]=Singular	1		_		_
	Qilindi	qil	VERB	F	Number=Plur|Person=3|Tense=PresTense=Past|Voice=Pass	0		_		_
	.	.	PUNCT	TB	_	_	_	_		_

"O*'zbek tili korpusi menejerining lingvistik va dasturiy ta'minoti*" deb nomlangan dissertatsiyaning to'rtinchi bobning birinchi fasli "*Korpus loyihasini yaratishning konseptologik asoslari*" deb nomlanadi. Korpus menejeri (korpus brauzeri yoki korpus qidiruv tizimi) korpusda ma'lumotni samarali qidirish imkonini beruvchi tizim hisoblanadi. Korpus menejeri murakkab model bo'lib, tilning turli nutqiy shakllarini va so'zlarning birikuvchanlik xossalarini kontekst tarkibida statistik ko'rsatishga mo'ljallangan. Ushbu tizim foydalanuvchiga yaxlit gap strukturasini yoki muayyan vaziyatga xos atributlari lemma, teg bo'yicha yoki so'zlarning konkordansi va chastotasi kabi ma'lumotni berishga xizmat qiladi. Serverning korpus qidiruv tizimi korpus menejeri bo'lsa, foydalanuvchi uchun mo'ljallangan qismi korpus interfeysi deb ataladi. Korpus menejerlari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Britaniya milliy korpusi webga asoslangan interfeys, Manatee (orqa font qismi) va Bonito (web interfeys) birgalikda bepul ochiq

resursli korpus boshqaruv tizimiga asoslangan Nosketch Engine, lingvistlar uchun dasturiy ta’minot paketi WordSmith Toolsni misol sifatida keltirish mumkin.



Bobning “*Matnlar reprezentativligi masalasi”* deb nomlangan ikkinchi faslida korpusning reprezentativligi matnlarning miqdor jihatdan yetarli ekanligi va janr jihatdan xilma-xilligi bilan belgilanishi ko‘rsatib o‘tilgan. V.P.Zaxarov va S.Y.Bogdanovaning fikricha[39], korpusning janriy-mavzuviy tuzilishi korpus matni uchun qanday manbalar tanlashiga e’tibor qaratish lozim. Unga ko‘ra, gazetalardagi kichik reklama matni alohida matn sifatida qaraladimi yoki ularni bir matnga birlashtirish to‘g‘rimi? Gazeta maqolasi matn sanaladimi yoki gazetaning bitta sonini yaxlit matn sifatida olish zarurmi? Har bir she’r bitta matnmi yoki she’riy to‘plamni umumiy holatda kiritish kerakmi? Bir-biriga javob tarzida yozilgan, mohiyatan bir mavzu muhokamasiga bag‘ishlangan nashr etilgan maktublar bitta matnmi yoki alohida korpus birligi sifatida olinadimi? Korpus tuzuvchi muallif ushbu savollarga korpusning turi va keyinchalik bajaradigan vazifasidan kelib chiqib javob berishi lozim. Milliy korpus yoki maxsus korpus ekanligiga qarab korpus birligi belgilanadi. Olimlar korpusni loyihalashtirish jarayonining muhim jihati sifatida xronologiyani ham nazarda tutadilar. Masalan, tilning zamonaviy korpusi deganda tilning qaysi leksik qatlami tushuniladi? Ushbu holatda turli janrlarda korpusning xronologik chegarasi turlicha bo‘lishi tabiiy. Korpusdan keng omma foydalanishi hamda xilma-xil vazifalarni bajarishga mo‘ljallanishi mumkin.

“O*‘zbek tili korpusining lingvistik va dasturiy ta’minoti*” deb nomlangan uchinchi faslida matn korpusining lingvistik ma’lumotlarini boshqarish tizimini amaliy jihatdan yaratish va uning auditoriya talabiga ko‘ra shakllantirish masalasi yoritilgan. Korpus menejeri statistik ma’lumot olish va foydalanuvchiga qulay tarzda natijalar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan maxsus qidiruv tizimi hisoblanib, ko‘pincha bunday tizimlar tayyor yechimlarga asoslangan bo‘ladi. Bu qidiruv so‘rovlarini (ma’lumotlar namunalarini) bajarish tezligi, tizimning

[39] Захаров В.П., Азарова И.В. и др. Моделирование в корпусной лингвистике: Специализированные корпусы русского языка. – Издателство Санкт-Петербургского университета, 2019. – С. 16.

moslashuvchanligi, kengaytirilishi va kengayishi bilan bog‘liq muammolarni yechishga xizmat qiladi.



	Hujjatlar	Gaplar	Token	So'z
Jami	1695	358391	846591	9474880
Parallel	8	856	3432	6159
Rasmiy	15	7714	19917	210102
Badiiy	385	325460	515034	2784292
Publitistik	230	5859	33356	93196
Ilmiy	1076	19358	348245	6387290

O‘zbek tilining agglyutinativligi va qo‘shimchalar ketma-ketligi bo‘yicha grammatik shakllarning hosil qilishi so‘zlarning morfotaktik modelini yaratish zaruriyatini ko‘rsatdi. Shu bois korpus menejerida matndagi so‘zlarning asosini aniqlashda (stemmizator orqali) o‘zbek tilining so‘z turkumlari bazasi uchun 90 ming leksik birlikning so‘z turkumlari ichki guruhlar bo‘yicha tasniflanib, fe’lning vazifadosh (sifatdosh, harakat nomi va ravishdosh) va nisbat (orttirma, majhul, birgalik) qo‘shimchalarini qabul qiluvchi fe’l guruhlari to‘plami korpusning lingvistik ma’lumotlar bazasiga kiritildi. Ushbu guruhlar umumiy morfotaktik modellarni yaratishda asos vazifasini bajaradi hamda so‘zlarni qidirishda ushbu to‘plamlardan qidirilayotgan so‘zning lingvistik ma’lumotlari olinadi.

Korpus tarkibida parallel korpuslar uchun quyidagi ma’lumotlar bazasi shakllantirildi:

- ikki tilli tarjima lug‘ati: o‘zbekcha-inglizcha, inglizcha-o‘zbekcha, ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha;
- leksik ko‘p ma’noli so‘zlar bazasi;
- sintaktik jihatdan tasniflangan modellar tizimi;
- WordFast texnologiyasi yordamida parallel matnlar tarjima xotirasi;
- tarjima muqobillarining konkordanslar bazasi;
- terminologik birikmalar, frazeologizmlar va idiomalarning tarjimada berilishi.

O‘zbek tilining elektron korpusining ichki korpusi parallel korpus ham bo‘lib, ushbu korpusga o‘zbekcha-inglizcha va inglizcha-o‘zbekcha parallel matnlarning tarjimon xotirada segmentlangan birliklar bo‘yicha topish imkoniyati mavjud. Matn kontentiga ko‘ra ilmiy va rasmiy uslubdagi yozma matnlar bazadan o‘rin oldi.

“*Korpus qidiruv tizimida matn tahrirlovchi dasturi interfeysi*” deb nomlangan to‘rtinchi faslda so‘zni qidirish jarayonida foydalanuvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan imlo xatolarni bartaraf etishning algoritmik yechimi ochib berilgan.

Tahrirlovchi dastur algoritmining blok-sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin[40]:



Matnlarni tahrirlovchi dastur turk, tatar, qozoq, qirg‘iz tillari uchun yaratilgan. O‘zbek tili uchun tahrirlovchi dasturning lingvistik ta’minotini yaratish bo‘yicha ham bir nechta tadqiqotlar olib borilmoqda. Tahrirlovchi dasturning ta’minotini yaratish bo‘yicha quyidagi texnologiyalar mavjud:

1. Djaro Vinkler algoritmi orqali ehtimollik nazariyaga asoslangan texnologiya;
2. Sof lingvistik bazaga asoslangan texnologiya;
3. FST (finite state trancducer) algoritmiga asoslangan texnologiya.
4. Levenshteynning oraliq masofa nazariyasi

Tadqiqotimizda so‘zlarning xatolarini aniqlashda *Djaro Vinkler algoritmi*ni qo‘llashning afzalliklarini isbotlashga harakat qildik. Ushbu usul ikki o‘xshash satrni o‘zaro solishtirish uchun qo‘llaniladi, mazkur algoritmda qo‘shish, tushirib qoldirish va o‘rniga qo‘yish amallari bajariladi.

Berilgan so‘rovga ko‘ra natija topilmasa, korpusda qidirilayotgan so‘zning imlosi qayta tekshiriladi. Shunda noma’lum satrni (so‘zni) boshqa bir satr bilan solishtirganda satr uzunligi (elementlar soni)ni quyidagicha tekshiramiz:

$$d_j = \begin{cases} 0 & m\ bo'lganda = 0 \\ \frac{1}{3}\left(\frac{m}{|s_1|} + \frac{m}{|s_2|} + \frac{m-t}{m}\right) & qolgan\ holatlarda \end{cases}$$

qayerda:

$|s_i|$ - s_i *satr uzunligi*;

m – o‘xshash simvollar miqdori;

t – transpozitsiyalar miqdorining yarmi.

[40] Vibhakti V. Bhaire, Ashiki A. Jadhav, Pradnya A. Pashte, Mr. Magdum P.G SPELL CHECKER // International Journal of Scientific and Research Publications, Volume 5, Issue 4, April, 2015. 1 ISSN 2250-3153.

Agar o‘xshash bo‘lsa, va $\left[\frac{\max(|s_1|,|s_1|)}{2}\right] - 1$ dan oshib ketmasa, s_1 va s_2 satrlardan ikkita element olinadi. Satrdagi har bir c_1 dagi simvol c_2 dagi simvollar bilan solishtiriladi. Turli holatdagi o‘zaro o‘xshash raqamlar 2 ga bo‘linadi, bu transpozitsiya raqami hisoblanadi. Masalan, **ODAMLAR va OMADLAR** so‘zini solishtiradigan bo‘lsak, har ikki satrning uzunligi m=7 ga teng. Biroq undagi M va D simvollarning o‘rni turlicha holatda kelgan. Bundan O va A bir xil holatda joylashgan. Chunki D va M ning holati 1 dan kattaroq. Shuning uchun bularni o‘xshash simvollar, deb ayta olmaymiz.

Djaro Vinkler masofasida *p* o‘lchov koeffitsienti bo‘lib, u satr boshidan prefiks deb nomlangan *l* uzunligacha bo‘lgan bir-biriga o‘xshash satrlar uchun aniqlangan o‘lchov birligi hisoblanadi. Djaro Vinklerda kamida ikkita satr solishtiriladi:

$d_w = d_j + \left(lp(1 - d_j)\right)$

$d_j - s_1$ va s_2 satrlar uchun Djaro masofasi

l – satr boshidan 4-simvolgacha bo‘lgan *umumiy prefiks*

p – o‘lchov koeffitsienti. U 0,25 dan katta bo‘lmasligi kerak. Unga teskari holatlarda orasidagi masofa 1 dan katta bo‘lishi mumkin. Lekin u 0 va 1 orasida bo‘lishi kerak. Agar masofasi 0 ga teng kelsa, ikki satr o‘rtasida umuman o‘xshashlik yo‘qligini, agar 1 ga teng kelsa, ikki satr bir xil ekanligini bildiradi. Vinklerning ishlarida 0 va 1 koeffitsient birligi hisoblanadi. **TAROQ** va **TAYOQ** so‘zlarni solishtirilsa, quyidagi jadval hosil bo‘ladi.

z	T	A	R	O	Q
T	1	0	0	0	0
A	0	1	0	0	0
Y	0	0	0	0	0
O	0	0	0	1	0
Q	0	0	0	0	1

Yuqorida aks etgan TARAMOQ va QARAMOQ so‘zlari solishtiriladi: m=6, t=0, $|s_1|=|s_2|=7$:

$d_j = \frac{1}{3}\left(\frac{6}{7} + \frac{6}{7} + \frac{6}{6}\right) = 0.9047$

l=0, p=0.1:

$d_w = 0.9047 + \left(2 \cdot 0.1 \cdot (1 - 0.9047)\right) = 0.92376$

Piton dasturlash tilida ushbu natija sinab ko‘rildi, undagi natijasi quyidagicha bo‘ladi:

BAHOR	0.8666666666666667	0.9066666666666667
NAHOR	0.7333333333333334	0.7333333333333334
HABAR	0.7	0.7
KITOB	0.8666666666666667	0.9066666666666667
KILOB	0.7333333333333334	0.7866666666666667

Ushbu algoritm orqali muayyan so‘zdagi harflar tushirilib qoldirilishi, o‘rniga qo‘yishi, almashtirilishi mumkin. Shunga ko‘ra u so‘zlardagi harflar lingvistik bilimlar bazasi orqali tekshiriladi.

XULOSA

O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Korpus lingvistikasida nutqning barcha ifodalarini kuzatish, tahlil qilish, o‘rganishning imkoniyati mavjud. Korpus matnlar majmui sifatida o‘rganilayotgan obyekt va predmetning tizimli majmuasidir. Korpus NLP va kompyuter lingvistikasining asosiy raqamli resursi sifatida til texnologiyalariga doir masalalarni echishga asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

2. Modellashtirishning informatsion, kompyuter, matematik, biologik, raqamli, mantiqiy, statistik, struktur, grafik kabi qator turlari mavjud. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari ikki xil yondashuvga asoslanadi: 1) korpus uchun yaratilgan tayyor lingvistik instrumentariylar va platformalar; 2) korpus taksonomiyasidan kelib chiqib, turli maqsadlarga mo‘ljallangan kompyuter lingvistikasi metodlari orqali yaratilgan formal-funksional modellar.

3. Elektron korpus tilning davriy tadriji mahsuli sifatida jamiyat laboratoriyasining o‘rganish obyekti vazifasini bajaradi. Shu bois korpusni uzluksiz ravishda boyitib, yangilab borishda korpus konseptologiyasini modellashtirishning universallik, standart, reprezentativlik kabi mezonlariga asoslaniladi.

4. Elektron korpuslar lingvistik ma’lumotlarni tahlil qilishda zamonaviy kompyuter metodlari va lingvistik tadqiqotlarning umumiy natijasidir. Ayniqsa, o‘zbek tilining maxsus (parallel, ta’limiy, mualliflik) korpuslari tilni turli aspektda o‘rganish va statistik jihatdan tadqiqot olib borish imkonini beradi.

5. Korpus texnologiyasi kompyuter lingvistikasining asosiy obyekti va predmeti sifatida matnlarni qayta ishlashda tabiiy tilning muayyan vaziyatdagi modeli vazifasini bajaradi. Tizimlashtirilgan va ma’lum me’yorlarga asoslangan tasnifiy matnlardan iborat elektron korpus lisoniy qoliplar, grammatik qoidalar, lug‘atlarni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning pragmatik va kognitiv tasviri aks etgan og‘zaki va yozma matnlar majmuasi (korpus) ontologik bilimlar bazasi, semantik va neyro to‘rlar, sun’iy intellekt texnologiyasi hamda lingvoprotsessor uchun tilning lisoniy modellari yaratishda hamda nutqiy aktlarni o‘rganishda katta rol o‘ynaydi.

6. Filologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishda lingvistik instrumentlaridan foydalanib maxsus korpuslarni yaratish statistik natijalarga erishishning kvantativ usuli bo‘lib xizmat qiladi.

7. Matnlarni tahlil qilishda muayyan turdagi instrumentariylar korpus foydalanuvchilarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib individual foydalanuvchilar interfeysi va korpus menejeriga ega bo‘ladi.

8. Parallel matnlar uchun segmentlash va lingvistik tahlil jarayonida Wordfast kabi instrumentlar samarali texnologik vosita sanaladi. Parallel matnlardagi konkordanslarni aniqlashda so‘z, so‘z birikmasi yoki barqaror birikmalarning u yoki bu tildagi muqobil ekvavalentligini aniqlashda tayyor lingvistik instrumentariylarga tayanish muhim. Parallel matnlardagi kalit so‘zlar uchun kontekstda tez-tez qo‘llanadigan birliklarni tarjimon xotiraga yuklash orqali parallel matnlarning qidiruv tizimini yaratishda foydalaniladi.

9. Korpusni lingvistik jihatdan annotatsiyalash (razmetka) undan qay tartibda foydalanishning bosh tamoyili hisoblanadi. Matnlarning razmetkasi uning metama'lumotida (yozma matnlar uchun uning struktur birliklari, sarlavhasi, muallifi, janri, nashri, yili; og‘zaki matnlarning obyekti sifatida olingan so‘zlovchilarning yoshi, jinsi, kasbi, millati) aks etadi. Kiritilgan ma'lumotlarni mashina o‘qiy oladigan formatda matnni kodlash yo‘riqnomasi (Text Encoding Initiative (T.E.I.)) orqali standart tilda beriladi.

10. Lingvistik annotatsiyalash leksik, morfologik, sintaktik, semantik, prosodik (diskurs), anaforik, temporal turlarga tegishli bo‘ladi. Annotatsiya jarayonida muayyan xulosani chiqarish uchun annotatsiya modellaridan (annotation scheme) foydalaniladi. Ular annotatsiya qo‘llanmalarida qayd etiladi. Matnni annotatsiyalash qo‘l mehnati yoxud avtomat va yarim avtomat usulda amalga oshiriladi.

11. Annotatsiyaning mazmuniy jihatlari yuqorida qayd etilgan lingvistik annotatsiyalash turlaridan tashqari annotatsiya formatini ham belgilash muhim mezonlardan biridir. O‘zbek tilining sintaktik tahlili uchun CONLL-U format asos qilib olindi.

12. O‘zbek tilining morfologik va sintaktik teglash tizimi Protégé texnologiyasi orqali ontologik modellashtirishda iyerarxik munosabatga asoslanildi. Grammatik teglash tizimi UniTurk doirasida turk, tatar, qozoq va qirg‘iz tillari uchun ham assotsiativ shaklda munosabatlar tizimiga bog‘langan, natijada korpus tahlili uchun turkiy tillarning teglash tizimi yaratilgan.

13. Chekli avtomat metodi (FST) yordamida o‘zbek tilining morfologik tahlil qiluvchi dasturning mashina fondi yaratildi: 1) “Qoidalar-Rules” bunda alifbo, fonologik qoidalar va fonetik hodisaga uchraydigan maxsus fonemalar (bunda o‘zbek tili uchun har ikki grafema asos qilib olindi: kirill va lotin; 2) Lug‘at-leksikon (bunda barcha so‘z turkumlarining o‘zak va sodda yasama shakli kiritiladi).

14. Korpusning morfologik tahlili va teglash jarayonida FST texnologiyasiga asoslanilishi uning ehtimollik variatsiyalarini natija sifatida olishda yordam beradi. FST orqali ulkan hajmdagi matn korpusi va u yerdan olingan holatlar tizimidan foydalanib, ehtimollik modellar yaratiladi, so‘zning imlosini nafaqat tekshirishda, balki uni to‘g‘irlashda (foydalanuvchiga bir nechta variant taklif qilgan holda) ko‘maklashadi.

15. Matn etarli miqdorda hajmga ega bo‘lishi, turli tipdagi ma'lumotlarni o‘zining tabiiy kontekstdagi shaklida korpusda ifodalanishi, tayyorlangan va yaratilgan ma'lumotlardan ko‘p marotaba foydalanish imkoniyatining mavjudligi, korpus menejerining foydalanuvchilar uchun olingan natijalarni mos shaklda taqdim qilish, talabdan kelib chiqqan holda korpus funksiyalari imkoniyatalarini yaratish hamda beriladigan so‘rovlar natijasida erishiladigan statistik ma'lumotlarni aks ettirish, saralangan va jamlangan matnlarni boshqarish va lingvistik ma'lumotlarni muayyan maqsadlar uchun foydalanishga yo‘naltirish korpus yaxlitligini ta'minlaydi.

16. Lingvistik annotatsiyalangan korpuslar kompyuter lingstikasi yo‘nalishlari uchun (mashina tarjimasi, nutq sintezatori, semtiment tahlil, spell-cheker kabilar) obyekt vazifasini bajaradi. Parallel korpuslar yordamida shakllantirilgan tarjima xotirasi matnlarni avtomatik tarjima qilishda lingvistik resurs vazifasini bajaradi.

17. Korpusning qidiruv tizimi (menejeri) foydalanuvchilar hamda kompyuter lingvistikasi mutaxassislari uchun amalda qo‘llash imkoniyatlari bir-biridan farqlanadi. Har ikki subyekt uchun matn xatolarini bartaraf etishda Jaro Vinkler algoritmi va FST texnologiyasidan foydalanish inson resursi sarflaydigan vaqt va mehnatni tejash hamda o‘zbek tilining grammatik fondini yaratishda vosita bo‘lib xizmat qiladi.

ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL BASED ON SCIENTIFIC COUNCIL WITH THE NUMBER DSC.02 / 30.12.2019.FIL.46.03 AWARDING SCIENTIFIC DEGREES UNDER THE INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI

ABDURAKHMONOVA NILUFAR ZAYNOBIDDIN QIZI

COMPUTATIONAL MODELS OF ELECTRONIC UZBEK CORPUS

10.00.11 – Language theory. Applied and computational linguistics

ABSTRACT OF DOCTOR OF SCIENCE (DSC) ON PHILOLOGICAL SCIENCES

Tashkent-2021

The theme of doctor science (DSc) thesis was registered by the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministries of the Republic of Uzbekistan under B2019.2. DSc/Fil1174.

The doctor of science thesis was implemented at Tashkent State university of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi.

The abstract of the thesis in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) is logged on the web-sites of the Scientific Council (www.uztafi@academy.uz) and the information-educational portal "ZiyoNet" (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:	**Khamudilla Dadaboev Aripovich** Doctor of philological sciences, professor
Rasmiy opponentlar:	**Muhamedova Saodat Xudayberdiyevna** Doctor of philological sciences, professor
	Urinbayeva Dilbar Bazarovna Doctor of philological sciences, associate professor
	Nazirova Elmira Shodmanovna Doctor of technical sciences, associate professor
Leading organization:	**Fergana State university**

Defense of the Dissertation will take place on «24» 12 2021, at «11» a.m. at a meeting Scientific Council DSc.02/30.12.2019. Fil.46.03 under Scientific Degree at Institute of Uzbek language, literature and folklore of the Uzbekistan Academy Sciences (address: 100060, Tashkent, str. Mirobod district, Shakhrisabz street, 5-house. Tel.: (99871) 233-36-50; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertation could be introduced at the Main Library of the Uzbekistan Academy Sciences (registered under No. 54). (address: 100100, Tashkent, str. Ziyolilar, 13. Tel: (99871) 262-74-58).

The abstract of the dissertation was distributed on «13» 12 2021.
(Registry report number 5 on «13» 12 2021)

N.M.Mahmudov
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological sciences, Professor

G.M.Ismailov
Secretary of Scientific Council awarding scientific degrees, Candidate of Philological sciences, Senior Scientific Researcher

D. S. Xudoyberganova
Chairman of Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological sciences, Professor

INTRODUCTION (the abstract of the doctoral (DSc) dissertation)

Actuality and necessity of the research theme. The studies on corpus, corpus technology and corpus linguistics in the world Applied linguistics reached a development stage in the second half of the twentieth century. The first English corpus played an important role in the creation of huge seized electronic corpora for other world languages in the XX century as well. Corpus serves as an investigation object to transform lingual models and speech capabilities of natural language into computer language, to solve language issues using computer technology and methods. One of the global issues in the information age is to keep the sustainable development of natural languages, the further improvement of the electronic corpus and new technologies.

At rapid developing world, corpus technology in computational linguistics serves as an important tool to tackle linguistic problems. A number of scientific progress was made through the positive impact of computer technology on language development and vice versa. Many scholars around the world conducted researches in various areas of computational linguistics[41]. As a result, the number of areas of science have emerged, such as machine translation, corpus linguistics, computer lexicography, spellchecker, speech synthesizer, linguastatistical analysis software, annotation and text classification.

Currently Uzbek computational linguistics is developing in the crossfields such as natural language processing (NLP), machine learning, data mining. Overall practical attainments in aforementioned fields are beneficial each other. It is important to keep mind that to provide an integration with the State language through modern information technologies, pointed out in a number of priorities in accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on October 21, 2019 № PF-5850 "On measures to radically increase the prestige and status of Uzbek language as the state language"[42]. Several programs have been developed to strengthen the status of Uzbek language and increase its prestige at the level of language policy that focused on creation digital resources of the language.

This investigation implements some functions in official priorities that comprising the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on May 13, 2016 "On the establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi" No. PF-4797, on February 7, 2017.

[41] Jurafskiy D., Martin J. An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition. 2007. – P. 12-13; Karin A., Bengt A. Advances corpus-based contrastive linguistics. USA: John Benjamins, 2013 – P. 25-54; Koehn P., Och F.J., Marcu D. Statistical phrase based translation // Human Language Technologies and the Annual Meeting of the North American Chapter of the Association of Computational Linguistics (HLT/NAACL). Proceedings of the Joint Conference 2003; Mitkov R. The Oxford handbook of Computational linguistics. Oxford university press, 2003; Kurdi M.Z. Natural Language Processing and Computational Linguistics: Speech, Morphology and Syntax. – Great Britain, USA: Wiley-ISTE 2016. – 300 p.; Чардин И.С. Лингвистические корпусы с разметкой на основе грамматики зависимостей и их применение при автоматическом синтактическом анализе: Автореф.дисс. …д-ра филол. наук. – Москва, 2004 – 24 с.

[42] "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni https://lex.uz/docs/-5058351

Decree No. PF-4947 “On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan”, the Law of the Republic of Uzbekistan “On the State Language” No. PQ-4479 on October 4, 2019 Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan on October 21, 2019 No PF-5850 “On measures to radically increase the prestige and status of the Uzbek language as the state language” Decree No. PP-1989 of June 27, 2013 “On measures to further develop the national information and communication system of the Republic of Uzbekistan”, on February 17, 2017 “On the activities of the Academy of Sciences, the organization of research work , further management and financing Resolution No. PQ-2789 “On measures to improve the language” .

The relevance of the research to the priorities of the development of science and technology in the country. The dissertation was conducted within the framework of the first direction of the development of science and technology of the Republic I. “Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state, the development of innovative economy”.

Review of foreign research on the topic of the dissertation[43].

The following scientific results have been achieved in areas such as world corpus technology and corpus-based analysis: modern English, Old English, modern foreign languages, a small number of languages, endangered languages studied by the corpus; in the field of NLP corpus methods have been developed and corpus concordance, tokenizer, stemmizer, lemmatizer were created in this field (University of Lancaster, UK); studies on corpus-based discourse analysis were implemented (University of Birmingham, UK); corpus manager interfaces have been developed (Waseda University, Japan, Iowa University, USA); formal-functional models of the syntactically annotated corpus (Penn Treebank) interface were created (University of Pennsylvania, USA); the first version of the first annotated Brown corpus was built (Brown University, USA); implemented theoretical and practical researches on annotated corpus and morphoanalyzer (University of Leipzig, Germany; Columbia University, USA; Abu Dhabi New York University, United Arab Emirates); corpus analysis developed without morphological homonymy based on semantic dictionary (St. Petersburg University, Russia); syntactically annotated linguistic corpus platforms created via grammar based on theory of dependency and automatic methods of parsers (Laboratory of Computational linguistics at the Institute of Information Transmission of the Russian Academy of Sciences); developed algorithm of the creation of parser (Moscow State University named after M. Lomonosov, Russia); the principles and criteria of learner corpus and linguistically annotated corpus were studied (University of California, University of Cambridge, USA); implemented web-based Crawler tool (University of Berlin, Germany); a system of morphological, syntactic and semantic tagging of the linguistically annotated corpus in Turkic languages was developed (Institute of Applied Semiotics,

[43] Dissertatsiyasiga mavzusiga aloqador xorijiy tadqiqotlar sharhi http://ucrel.lancs.ac.uk/, google.scholar.com; https://www.researchgate.net , https://www.aclweb.org/anthology/L16-1207.pdf, http://qazcorpus.kz/indexen/ , http://www.openslr.org/resources.php, http://ddi.itu.edu.tr/en/toolsandresources

Tatarstan); issues such as adaptation of two-stage morphological analyzer to corpus analysis, sentence segmentation, tokenizer, universal dependence theory of syntactically annotated corpus, development of standards for multi-component words (Istanbul Technical University, Turkey); created a national corpus manager for the Kazakh language (Ahmad Boytursunov Language Institute, Institute of Artificial Intelligence, Kazakhstan); corpus-based language education, parsing based on the theory of dependency, FST technology in corpus morphological analysis, authorship corpus, software and linguistics of national corpus creation, corpus morphological and semantic analyzer, creation of statistical based machine translation of Uzbek language, theoretical and practical research on the formation of the learner and web corpus[44] (Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature, National University of Uzbekistan, Tashkent University of Information Technologies, TUIT branch of Samarkand State University).

Degree of study of the problem. In the world experience, the linguistic, mathematical and programmatic aspects of building a corpus have been reflected in researches by scientists[45]. Particulary, V. Zakharov, A. Sedov, A. Baranov, R. Potapova, V. Rikov, U. Francis, N. Leontyeva, V. Martin, S. Kubler, A.Laurens, E.Etwell, S.Hunston, L.Boizou, McKenneri, J.Grafmiller, J.Grieve, N.Grum, S. Hansson, K.McAuliff, M.Malberg, P.Milin, A.Murakami, R. Patch, A. Schembri, P. Thompson, B. Winter, G. Leach conducted researches in different fields of corpus linguistics[46]. In Turkology Aksan, Deniz Zeyrek, Kemal Oflazer, Umut Özge on the Turkish language corpus; Yusuf Aibaidulla, Kim-Teng Lua on Uyghur corpus; L.A. Buskunbaeva, Z. Sirazitdinov on Bashkir corpus; Sheymovich on Khakas corpus, J.Suleymanov, A.Gatiatullin, O.Nevzorova, R.Gilmullin, B.Khakimov on Tatar corpus; L.Kubedinova on Crimean Tatar corpus and A.Salchak on Tuvan corpus are noteworthy as contributors to develop Turkic corpora.

It can be said that initially formation of computational linguistics was in our country by N.Yakubova, M. Ayimbetov, S. Rizayev, S. Mukhamedov's reseaches on investigating linguostatistics[47]. Linguistic models, modeling and its principles,

---

[44] http://uzschoolcorpara.uz; http://uzcorpus.uz/

[45] Kubler S., Zinsmeister H. Corpus linguistics and linguistically annotated corpora. – New York: Bloomsbury, 2015. –P. 321.; Martin W. Developing Linguistic Corpora: A Guide to Good Practice, OxfordBooks. 2005. http://www.ahds.ac.uk/creating/guides/linguistic-corpora/; Heike Z., Hinrichs E., Kübler S., Witt A. Linguistically annotated corpora: Quality assurance, reusability and sustainability / Corpus Linguistics: An International Handbook A. Lüdeling and M. Kytö (eds), Vol. 1, – Berlin: Mouton de Gruyter, –P. 759–76; Копотев М. Введение в корпусную лингвистику (учебное пособие). – Прага, 2014. – 264 с.; Atkins B., Zampolli A. Computational approach to the lexicon. – Oxford, 1994. –P. 494.

